



XIROMIYNING “CHOR DARVESH” DOSTONIDA

XOTIN-QIZLAR TIMSOLI

Safarova Hilola Oxunjonovna,
BuxDU, f.f.n. dotsent.

Maxmudova Robiyabonu Furqatovna,
BuxDPI Tillar fakulteti “Rus tili va adabiyoti”
kafedrası o‘qituvchisi.

Annotatsiya: Maqolada Xiromiyning “Chor darvesh” dostonidagi xotin-qizlar obrazining badiiy talqini va uning davrlar kesimidagi o‘zgarishlari tahlil qilinadi. Dostondagi ayollar timsolining tarixiy davrlar ta’sirida qanday shakllanganligi va ularning oliy maqsadli, yuksak axloqli, haqiqatparvar, adolatparvar kishilar sifatida to‘g‘rilik, do‘stlik, soflikni ulug‘laydi, ishq-muhabbatni har narsadan pok tutishi, erkin, baxtli hayotni qo‘msashi, razolatni qoralashi haqida fikrlar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: Doston, “Chor darvesh”, “Bog‘u bahor”, “Yangi nafis uslub”, Bombay, Lohur, Dehli, Kal’kutta, Ollohobod, Lakhnava.

“Chor darvesh” asarining ilk nusxasi XVIII asrda O‘rta Osiyoda forsiy tilda noma’lum muallif tomonidan yaratilgan. XVIII asr oxirlarida Tahsin urdu tilida “Yangi nafis uslub”, Mir Ommon esa 1802 yilda “Bog‘u bahor” nomlari bilan “Chor darvesh” syujeti asosida nasriy asarlar yozilgan. Bundan tashqari, Hindistonning Bombay, Lohur, Dehli, Kal’kutta, Ollohobod, Lakhnava kabi shaharlarida forsiy tilida, O‘rta Osiyoning Kitob, Xorazm, Qo‘qon, Buxoro, Toshkent, Dushanbe kabi viloyat va shaharlarida o‘zbek va tojik tillarida, Qozonda tatar tilida, Peterburgda rus tilida “Chor darvesh” nomi bilan asarlar keng tarqalgan. Bu qissa 1927, 1957 yillarda Moskvada “Bog‘u bahor”, 1951, 1961 yillarda Dushanbeda “Chor darvesh” nomi bilan nashr ettirilgan.

Alisher Navoiy an’alarining munosib davomchisi, iste’dodli shoir Xiromiyning “Chor darvesh” (To‘rt darvesh) dostoni o‘zbek mumtoz adabiyotida alohida o‘ringa ega. Ushbu asarda ayollar timsoli nafaqat go‘zallik va latofat ramzi, balki qahramonlik, sadoqat va aql-idrok timsoli sifatida ham talqin etiladi. Mulla Qurbon Xiromiy ijodini o‘rganish, to‘plash va ilmiy tadqiq etish ishlari XX asrning 40-70-yillardan boshlangan. Xiromiy asarlari 1940- yildan xrestomatiya va darsliklaraga kiritila boshlandi. Keyinchalik shoirning asarlari kitob qilib nashr etildi. “Chor darvesh” asarida xotin-qizlarga alohida o‘rin berilgan. Shuni maqtovga loyiqki, “Chor darvesh”dagi deyarli barcha xotin-qizlar obrazi ijobiy ijobiy fazilatlarga ega. Ular oliy maqsadli, yuksak axloqli, haqiqatparvar, adolatparvar kishilar sifatida to‘g‘rilik, do‘stlik, soflikni ulug‘laydi, ishq-muhabbatni har narsadan pok tutadi,



erkin, baxtli hayotni qo‘msaydi, razolatni qoralaydi. Dostondagi xotin-qizlar haqiqat yo‘lida ota-onani ham, siyosat va tuzumni ham hisobga olmaydilar. Qasd qilganlardan o‘ch oladilar, yo‘liga g‘ov bo‘lganlarga qarshi kurashadilar, muhabbatni poymol etganlarga omonlik bermaydilar. Ular asarning eng muhim, hal qiluvchi obrazlari sifatida butun asar bo‘ylab yagona zanjir tashkil etadi. Dostonda ayol obrazlari shunchaki voqealar rivojiga hamrohlik qiluvchi personajlar emas, balki voqealar oqimini o‘zgartiruvchi faol kuchlar sifatida namoyon bo‘ladi. To‘rt darveshning har birining sarguzashtlari zahirida ma‘lum bir ayol siymosi yotadi. Birinchi darvesh hikoyasidagi malika poklikni qadrlashi¹ bilan dostondagi boshqa xotin-qizlardan ajralib turadi. U malika bo‘lsa ham, odamlarni yaxshi-yomonga, boy-kambag‘alga, shoh-darveshga bo‘lmaydi. Hammaga bir xil nazar bilan qaraydi. Sevgini inson hayotidagi eng muhim masala deb tushunadi. Odamgarchilikni sevgining qadriga yetish deb belgilaydi. Xiromiy malikani “gul xirmani”, “xo‘blik mahzani”, “xo‘blar sarvari” deb ta‘riflaydi, husn va latofatda tengsizligini ham qisqa, ammo mazmundor misralarda gavdalantirib, malika portretini mukammal yaratishga harakat qiladi. Ikkinchi darvesh sarguzashtida ham bosh qaxramonlardan biri xotin-qizlardandir. U ham Xiromiy dostonlaridagi “charxi xunrez” dastidan baloga giriftor bo‘lib, maqsadiga erisha olmaganlardan. U shohning qizi bo‘lishi, muhabbat, insoniylikni ulug‘lashi bilan birinchi darvesh sarguzashtidagi malikaga o‘xshasa, ishq va haqiqat yo‘lida otasiga qarshi borishi, hayotning murakkab yo‘llarini sabot bilan bosib o‘tishi bilan undan farq qiladi va oqilaligi tufayli barcha mushkullardan qutulishga erishadi. Malikaning fojiali takdiri mumtoz adabiyotimizdagi Layli, Shirin, Zuhrlar taqdiriga o‘xshaydi. Xiromiy Malika obrazi bilan XIX asrdagi minglab baxtsiz qizlar fojiasini hikoya qiladi. Qissada, bir tomondan Malikaning husn-latofatda tengsizligi maqtalsa, ikkinchi tomondan, uning “qora” taqdiri hikoya qilinadi. Bu qarama-qarshilik kitobxon qalbini tirnab, unda mavjud tuzum va uning qonun-qoidalariga qarshi qahr-g‘azab o‘tini alanglatadi. Otasi, taxtini qo‘limdan tortib olmasin, deb qizining sevgilisini avval qafasga soladi, keyin o‘ldiradi. Ozodbaxt hikoyasida vazirning qizi “Chor darvesh” qissasidagi eng mukammal obrazlardan sanaladi. Unda eng go‘zal fazilatlar mujassam etilgan. U jasoratli, qatyiqli, donoligi bilan asardagi boshqa xotin-qizlardan farq qiladi, ulardagi bo‘sh tomonlarni to‘ldiradi. Dostonda uning o‘rni, asosan, Ozodbaxt tomonidan bo‘lgan xatoni tuzatib, adolatni tiklashda ko‘rinadi. Hikoyaning asosida ham ana shu voqea turadi. U asarda haqiqatni tiklash uchun kurashuvchi inson, xo‘rlangan otasi oldida o‘z burchini o‘tovchi farzand sifatida gavdalanadi. Uning xarakteridagi barcha ijobiy fazilatlar, faoliyatidagi muhim xislatlar, aql va tafakkur dostondagi ana shu masalani amalga oshirishga bo‘ysundirilgan. Ba’zi bir ruhoniylar xotin-qizlarni kamsitgan, ularni zaifa, ojiza deb

¹ М.Афзалов. Ўзбек халқ эртаклари ҳақида. Тошкент, “Фан” нашриёти, 1964, 48-49-бетлар.





bilgan ijtimoiy sharoitda shoirning ayollar haqida shunday dadil va odilona fikrlarni bayon qilishining o'zi ham bir jasorat edi. Uchinchi darvesh hikoyasida Malikai ol-Barmakning saxovati, odilligi, xalqparvarligi, davlatni idora etishda joriy etgan uslub va tadbirlari haqida so'z boradi. Shoir u boshqarayotgan mamlakatni XIX asr hukmdorlariga namuna qilib ko'rsatadi, ularni malikadan o'rnak olishga chaqiradi. Malikai ol-Barmak obrazi o'zbek xotin-qizlarining ma'naviy o'sishida ma'lum tarbiyaviy o'ringa ega.

Dedi ul pari menga: "Ey odami,
Falak qo'ymadi ikkimizni dame.
Bu zolim falak asru g'addordir,
Ki oshiq eliga jafokordir.
Agar uchrasa bir-iki oshno,
Qilur daf'atan ikkisini judo.
Vale, ey yigit, bevafo bo'lmagil,
Ki minba'd qalb oshno bo'lmagil.
Budur shart- bir dam unutmami meni,
Ki bir lahza tarkimni tutma meni"²

Keltirilgan parchada Xiromiy xotin -qizlarni kuchsiz, ojiz va irodasiz "zaifa"lar sifatida emas, balki o'z haq-huquqi, izzat nafs uchun kurasha oladigan, maqsadga erishishda jasorat ko'rsata oladigan ayollar sifatida gavdalandira olgan.

Xulosa qiladigan bo'lsak, Xiromiy "Chor darvesh"dagi qator xotin-qizlar obrazlari orqali o'zining qarashlarini, orzu-umidlarini badiiylashtiradi. Shoir o'zi yashagan davrdagi xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni, oiladagi vazifasini ko'rsatib beradi. Shu bilan birga jaholat va nodonlik botqog'iga uloqtirilgan xalqni haqiqat, erk va adolatni himoya qilishga da'vat etadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Афзалов М. Ўзбек халқ эртаклари ҳақида. Тошкент, "Фан" нашриёти, 1964, 48-49-бетлар.
2. Хиромий. Чор дарвеш. Тошкент, "Бадий адабиёт" нашриёти, 1960, Б.840.
3. Rajabova, R. Z. EXPRESSIVENESS OF GENRE CHARACTERS INHERENT IN FOLK RIDDLES IN LITERARY RIDDLES.
4. Zaripovich, R. D., Matchonboyevich, S. S. A., Aminbayevna, R. Z. S., & Zaripovna, R. R. N. (2025). Belief Systems of the Uzbek People: Shamans and Bakshis. *Journal of Chemical Health Risks*, 15(6), 3512.
5. Раджабова, Р. З. (2020). PROSE TALES AND THE INFLUENCE OF FOLK TALES ON THEIR WORK. *ФИЛОЛОГИЯ, ЛИНГВИСТИКА, ЖУРНАЛИСТИКА: АКТУАЛЬНЫЕ*, 9.

1. ² Хиромий. Чор дарвеш. Тошкент, "Бадий адабиёт" нашриёти, 1960, 48-49-бетлар.





6. Rajabova, R. N. Z. (2020). A LITERARY RIDDLE FROM A FOLK RIDDLE. In *European Scientific Conference* (pp. 139-141).
7. Davronova S. THE ORIGINALITY OF THE ARTISTIC IMAGE AND THE TRUTH OF LIFE IN THE NOVELS OF ULUGBEK KHAMDAM //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2022. – Т. 2. – №. 06. – С. 49-53.
8. Давронова Ш. Г. АБДУЛЛА ҚОДИРИЙ АНЪАНАЛАРИ ВА ИСТИҚЛОЛ ДАВРИ ЎЗБЕК РОМАНЧИЛИГИ //МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА. – 2021. – Т. 4. – №. 1-2.
9. G'aybulloevna D. S. The Issue of Artistic Image of Nature and Method In The Works Of Isajan Sultan (On The Example Of "The Missing Motherland") //Indonesian Journal of Innovation Studies. – 2022. – Т. 18.
10. Давронова Ш. ҚИССАДА БАДИИЙ ДАЛИЛЛАШНИНГ ЎРНИ: Шоҳсанам Давронова БухДУ ўзбек тили ва адабиёти кафедраси доценти, ф. ф. доктори //Научно-практическая конференция. – 2021.
11. Shokhsanam Davronova 2021. UZBEK NOVEL IN THE INDEPENDENCE PERIOD: TRADITION AND NOVELTY ISSUES. *JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*. (Feb. 2021), 679–683.
12. Davronova S. Eastern and western literary tradition in the modern uzbek novels //World science. – 2016. – Т. 4. – №. 5 (9). – С. 33-34.
13. Davronova S. MODERN ÖZBEK ROMANLARINDA KÂMİL İNSAN TERBİYESİ MESELESİNİN ELE ALINIŞI //Electronic Turkish Studies. – 2017. – Т. 12. – №. 15.
14. DAVRONOVA S. TARİHİ ROMANDA MUTASAVVIF BİLGİN SİMASI //DİL VE EDEBİYAT ARAŞTIRMALARI I. – С. 108.
15. Shokhsanam D. EASTERN AND WESTERN LITERARY TRADITION IN THE MODERN UZBEK NOVELS //International Scientific and Practical Conference World science. – ROST, 2016. – Т. 4. – №. 5. – С. 33-34.
16. Давронова Ш. Литературное влияние и творчество //Иностранная филология: язык, литература, образование. – 2016. – Т. 1. – №. 2 (59). – С. 40-46.
17. Давронова Ш. Адабий таъсир ва ижодийлик //Иностранная филология: язык, литература, образование. – 2016. – 2016.
18. Davronova S. КОНТРАСТИЧЕСКОЕ ОПИСАНИЕ МЕТОДА В ЛИТЕРАТУРЕ (НА ПРИМЕРЕ РАССКАЗА ИСАДЖАНА СУЛТАНА "ОЛИСДАГИ УРУШНИНГ АКС-САДОСИ") («ЭХО ВОЙНЫ ВДАЛЕКЕ») //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 9. – №. 9.
19. Davronova S. Mythology in intellectual novels //Theoretical & Applied Science. – 2015. – №. 4. – С. 40-43.
20. Gaybulloevna D. S., Bakhtiyorovna N. N. PSYCHOLOGIST IN ULUGBEK KHAMDAM'S NOVEL" FATHER.
21. Davronova S., Kandimova I. CHARACTER CREATION SKILLS OF LUKMON BORIKHAN //INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" INNOVATIVE



- TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION". – 2023. – T. 2. – №. 4. – C. 30-34.
22. G'aybulloevna D. S. TILAK JO 'RA IJODIDA BADIY IFODA VA MAHORAT //THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY. – 2024. – T. 2. – №. 20. – C. 212-218.
23. Davronova, S. (2024, May). TILAK JO 'RA SHE'RIYTINING O'ZIGA XOSLIGI. In *CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD* (Vol. 1, No. 4, pp. 181-191).
24. Davronova S. ABDUQAYUM YO 'LDOSH HIKOYALARIDA JAMIYAT VA INSON MUNOSABATLARI TALQINI //Journal of science-innovative research in Uzbekistan. – 2024. – T. 2. – №. 12. – C. 405-411.
25. G'aybulloevna D. S. ERKIN VOHIDOV IJODIDA MILLIYLIK IFODASI //Problems and solutions at the stage of innovative development of science, education and technology. – 2025. – T. 2. – №. 5. – C. 96-101.
26. G'aybulloevna, Davronova Shohsanam. "ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATIDA TABIAT VA INSONIY TUYG 'ULAR TALQINI." *Economics, management, and digital innovation in education: contemporary trends and approaches* 2.11 (2025): 87-94.
27. Давронова Ш. Адабий таъсир ва ижодийлик //Иностранная филология: язык, литература, образование. – 2016. – Т. 18.
28. Давронова Ш. Литературное влияние и творчество //Иностранная филология: язык, литература, образование. – 2016. – Т. 1. – №. 2 (59). – С. 40-46.
29. DAVRONOVA S. TARIHI ROMANDA MUTASAVVIF BILGIN SIMASI //DIL VE EDEBIYAT ARASTIRMALARI I. – C. 108.
30. DAVRONOVA S. ERKIN VOHIDOV SHE'RIYATIDA SHOIRALAR IJODIGA MUNOSABAT IFODASI //FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA. – 2025. – №. 5. – C. 70.
31. Saidova, Nodira Mustakimovna. "G'AZAL TAHLILIGA GERMENEVTIK YONDASHUV." *Scientific progress* 4.2 (2023): 324-327.
32. Saidova, Nargiza Makhmudovna. "Features of the Development of the Saudi Realistic Story in the Second Half of the Twentieth Century." *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding* 8.4 (2021): 360-370.
33. Saidova, Nodira. "Abdulla Avloniy asarlarida ta'lim va tarbiyaga oid qarashlar." *Science and Education* 3.2 (2022): 562-567.
34. Nodira, Saidova. "PEOPLE'S ORAL CREATIVITY-INVALUABLE WEALTH." *Archive of Conferences*. 2021.
35. Nodira, Saidova. "BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING TAFAKKURIDA MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYANING O'RNII." *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI* 2.1 (2022): 298-299.



36. Nodira, Saidova. "NAVOIY VA ILOHIYOT MUAMMOSI RAHIM VOHIDOV TALQINIDA." *Innovations in Technology and Science Education* 2.8 (2023): 681-689.
37. Mustakimovna, Saidova Nodira. "Immanent and contextual text analysis immanent and contextual out-of-class based approach designing literature lessons." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 12.4 (2022): 188-192.
38. Mustakimovna, Saidova Nodira. "A HISTORY OF IMMANENT AND CONTEXTUAL APPROACHES." *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies* 2.12 (2022): 34-38.
39. Mustakimovna, Saidova Nodira. "MATN TAHLILIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLARNING O'RNI." *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH* 2.18 (2022): 92-96.
40. Mustakimovna, Saidova Nodira. "SINFDAN TASHQARI ADABIYOT DARSLARINI LOYIHALASHTIRISH." *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH* 2.18 (2022): 84-86.
41. Mustakimovna, Saidova Nodira. "O'QITUVCHI-AMALIYOTCHI TALABALARNING AMALIYOT JARAYONIDA IMMANENT VA KONTEKST YONDASHUVLARIDAN KENG FOYDALANISHI." (2022).
42. Mustakimovna, Saidova Nodira. "G'AFUR G'ULOM ASARLARINI IMMANENT VA KONTEKST YONDASHUVLARI ASOSIDA TAHLIL QILISH: <https://doi.org/10.53885/edinres>. 2022.9. 09.025 Saidova Nodira Mustakimovna Buxoro davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrası o'qituvchisi." *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал* 9 (2022): 177-182.
43. Mustakimovna, SAIDOVA Nodira. "IMMANENT VA KONTEKSTLI YONDASHUV ASOSIDA SINFDAN TASHQARI ADABIYOT DARSLARINI LOYIHALASHTIRISH JARAYONINING MAZMUNI." *EDAGOGIK AHORAT*: 94.
44. Саидова, Нодира Мустакимовна. "O'QITUVCHI-AMALIYOTCHI TALABALARNING AMALIYOT JARAYONIDA IMMANENT VA KONTEKST YONDASHUVLARIDAN KENG FOYDALANISHI: Saidova Nodira Mustakimovna, Buxoro davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrası o'qituvchisi." *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал* 5 (2022): 141-145.
45. H. Safarova, A crow, an owl, a sheep, a bird turned your flowers...:(On the example of the work of the poet Samandar Vahidov) Center for Scientific Publications (bukhdu. en).
46. H. Safarova, Theformation of musammat (octaves) in the literary environment of Bukhara (based on the poems of Samandar Vahidov) Center for Scientific Publications (bukhdu. en).8 (2021)



Date: 15 June 2026

47. H. Safarova, Navoi does not need a soul, but. Center for Scientific Publications (bukhdu. en).3 (2021) 7. A. Hamroyev, H. Jumayeva, E3S Web of Conferences 420. 10007 (2023)
48. H Safarova. The agony of missing the sun and heat. Center for Scientific Publications (bukhdu. en) 8(8) (2021)
49. H.O. Safarova. Parents double wings to the child. Indonesian Journal of Innovation Studies 18 (2021)
50. Okhunjonovna, S. H., Bakoevna, R. M., & Kadirovna, A. Z. (2023). Travelogues in The Literature of Bukhara at The End of The 19th and The Beginning of The 20th Century. Res Militaris. Social Science Journal/Res Militaris, 13(1), 2023-258.
51. Rajabova, M., Safarova, H., Amonova, Z., Shirinova, M., & Ibotova, M. (2024). The world of subjects in "Nazm Ul-Javahir" by Alisher Navai. In E3S Web of Conferences (Vol. 538, p. 05023). EDP Sciences.
52. Safarova, H., Rajabova, M., Amonova, Z., Shirinova, M., & Maxmudova, R. (2024). Activity of Cholpan in the literary environment of Bukhara. In E3S Web of Conferences (Vol. 538, p. 05036). EDP Sciences.
53. Amonova, Z., Rajabova, M., Safarova, H., Shirinova, M., & Akhrorova, Z. (2024). The teachings of Hurufism and Nasimi's poetic skills. In E3S Web of Conferences (Vol. 538, p. 05037). EDP Sciences.
54. Amonova, Z., Rajabova, M., Safarova, H., Shirinova, M., & Akhrorova, Z. (2024). The teachings of Hurufism and Nasimi's poetic skills. In E3S Web of Conferences (Vol. 538, p. 05037). EDP Sciences.
55. Rajabova, M., Amonova, Z., Qodirova, N., Rajabova, R., & Ibotova, M. (2024). Interpretations on ecological problems and their solution in the works of Abu Ali ibn Sino. In E3S Web of Conferences (Vol. 587, p. 02019). EDP Sciences.